

YOSHLAR ORASIDA CHET TILLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

O'roqova Bahora Baxrom qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek tili va adabiyoti Universiteti

masofaviy ta'lim fakulteti O'zbek tili

va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

email. bahorafarmonova68@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida chet tillarini o‘rganishning ahamiyati, uning jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: til, ta’lim, yoshlar, onlayn ta’lim, vaqt, samara, natija, rivojlanish, taraqqiyot.

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida bu jarayonga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab chet tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yoshlarning intellektual salohiyatini oshirib, ularning kelajakda har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Birinchidan, yoshlarning chet tillarini o‘rganishi ularga keng imkoniyatlar yaratadi. Xalqimizda “Til bilgan el biladi” degan hikmatli so‘z bejiz aytilmagan. Bugungi kunda chet tillarini bilish xalqaro maydonda faol ishtirok etish, sifatli ta’lim olish va yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishning muhim omillaridan biridir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagilar orasida ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ko‘p til bilishga intilish va o‘zaro sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Bu esa jamiyatimizda bilimga intilish darajasi yuqori ekanidan dalolat beradi.

Biroq, ayrim hollarda yoshlar til o‘rganish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, vaqt yetishmasligi, moddiy imkoniyatlarning cheklanganligi va to‘g‘ri metodikaning yo‘qligi bu jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ayrim yoshlarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish pasayadi yoki umuman yo‘qoladi.

Til o‘rganish insonning nutq apparatini rivojlantiradi, talaffuz va intonatsiyani yaxshilaydi. Bundan tashqari, u xotirani mustahkamlashga, tafakkurni rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chet tillarini o‘rganish orqali inson boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashi bilan yaqindan tanishadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi ushbu muammolarga samarali yechim taklif etmoqda. Xususan, onlayn ta’lim platformalarining rivojlanishi natijasida istalgan joyda va qulay

vaqtda til o‘rganish imkoniyati yaratildi. Bu esa o‘quv markazlariga bora olmaydigan yoki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham katta qulaylikdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator davlat dasturlari va qarorlar qabul qilingan. Xususan, chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy tizimi joriy etilib, malaka sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchi, talaba va pedagoglar uchun turli imtiyozlar belgilangan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganishda tinglab tushunish ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi.

Masalan, chet tilidagi film va musiqalarni muntazam tinglab boruvchi o‘quvchilarda tilni tezroq o‘zlashtirish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bu esa tinglash orqali gapirish, o‘qish va yozish malakalari ham rivojlanishini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘rganish bugungi yoshlar uchun muhim zaruratdir. Til bilish insonning imkoniyatlarini kengaytirib, turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Ko‘p tillarni egallash yoshlarning tafakkurini boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi va ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Shu bois, yoshlar orasida chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish, zamonaviy ta‘lim sharoitlarini yaratish hamda ta‘lim tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasiga oid normativ hujjatlar - www.edu.uz
2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim sohasiga oid qarorlari